

BADIIY MATNDA RUHIY KECHINMA VA OBRAZLILIK

Qunduz Rustam qizi Ibodullayeva

O‘zbekiston Milliy universiteti Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Badiiy matnlarni tahlil qilishda turli xil yondashuvlar mavjud. Badiiy asar matni lingvistik, adabiy yoki lingvopoetik tahlil obyekti bo‘lishi mumkin. Ushbu maqolada badiiy matnni o‘rganish darajasi, badiiy matnni shakllantiruvchi vositalar, badiiy matnni tahlil qilish bosqichlari va unda zarur bo‘ladigan jihatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, lingvopoetik vositalar, badiiy asar tili, badiiy matnning o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy matnni tahlil qilish, matn lingvistikasi, leksik poetika, ruhiy kechinma, obrazlilik.

ABSTRACT

There are various approaches to analyze literary texts. The texts of literary works can be the object of linguistic, literary, or linguopoetic analysis. It is clarified the level of the studying literary text, the tool of forming literary text, the stages of analyzing literary text and essential points in the article.

Keywords: literary text, the form of linguopoetry, the language of the literary work, the features of literary text, to analyze literary text, the imagery, the text linguistics, poetry, spiritual experience.

KIRISH

Uslub nafaqat davr, ijtimoiy shart-sharoit, hayotda kuzatilgan voqea-hodisa, xarakter va holatlar, yozuvchi tasviriga ko‘chgan situatsiya va konfliktlarga bog‘liq, balki birinchi navbatda bu xarakter, holat-kayfiyat, konfliktlarni badiiy obrazlarda gavdalantiruvchi, hayotning original badiiy kartinasini yaratuvchi ijodkor inson – san’atkorga bog‘liq, - yozadi adabiyotshunos O‘.Nosirov. Binobarin, asosiy tushunchada san’atkor shaxsiyati butunligiga daxldor xususiyatlar jamlanadi. Yaxlit tizim sifatida voqelik shakli va mazmunini bir-biriga ulaydigan badiiy kategoriyada daraja ko‘rsatkichi qabarib ko‘rinadi. Aynan, tasvir va ifodani muayyan estetik markazga yig‘ish adabiy mahoratga chambarchas bog‘liq. Aslida, hayotiy materiya ko‘p qirrali va mavhum, ijodiy tanlov pozitivligini esa tahlil aniqligi belgilaydi. Mantiq va munosabat zichligi



badiiy me'yor saqlanishi kafolati, unda voqelik poetik tahlili xoslanganlik darajasi aks etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Adabiyotning bosh quroli – bu so‘z. Darhaqiqat, adabiy asar axborot vositasigina emas. Unda hikmat, ma‘rifat, ta‘lim – tarbiya, ma‘naviy - ahloqiy madaniyat va hayot falsafasi sintezlashgan. So‘z san‘ati o‘sha tasvir obyektini o‘zining obrazlar tizimiga aylantirar ekan, voqelikni, odamlar taqdirini badiiy tadqiq etarkan, ularni go‘zallik qonuniyatlari nuqtayi nazaridan qayta jilolantiradi. Asl san‘at oddiy va kundalik ashyolarga shunday ma‘no yuklay oladiki, natijada o‘sha tasvirlangan mazmun tarixiy mazmun kasb etadi. San‘atning betakror mohiyati ham shundaki, u aynan shu davrdagi odamlar ong – shuurini, hayot nafasi va jamiyat ehtiyojlarini tasvirlanayotgan mazmunga singdirib yuboradi, natijada o‘sha ifoda obyektini barcha xalqlar va elatlarning nazarini tortadigan e‘tiborini qozonadigan mohiyati bilan umumbashariy qadriyat maqomiga ega bo‘ladi”. “Ijodkor o‘zi idrok etgan voqelik, olamni, kishiga aytmoqchi bo‘lgan fikrini, g‘oyasini so‘z orqali yetkazadi. So‘z iboralarini, o‘rinli qo‘llash, ayniqsa, she‘r uchun zarur va shartdir”. Shoiraning “so‘z quvvati bilan bunyod etilgan poetik olami bag‘riga chuqurroq kirib borgan sari uning mukammalligiga, shaklan pishiq, mazmunan to‘liqligiga imon keltira borasiz”. Badiiy matndagi har qanday so‘z ma‘lum bir maqsad sari yo‘naltirilgan bo‘ladi. So‘zlar tilda ko‘p ma‘nolilik xususiyatiga ega. Bular so‘zning o‘z ma‘nosi va ko‘chma ma‘nosi deb yuritilsa, badiiy adabiyotda bu hodisa ramziylik, bo‘yoqdorlik kasb etadi. Qadah bir-biriga urilib jarangdor ovoz chiqarganidek, so‘z ham so‘zga qo‘shilib kutilmagan ma‘nolarni kashf qiladi. Badiiy matn ana shu nuqtayi nazardan tekshirilgan paytda matndan anglashilgan mohiyat so‘z vazifadoshligida yuzaga keladi. Ya‘ni, so‘zdan anglashilgan ma‘no mazmun satrma – satr, bandma – band izchillikda davom etib, lug‘aviy- ma‘naviy intizomni shakllantirib boradi. Shunday ekan, she‘r olami so‘zni-da o‘zgartiradi: so‘z ko‘z oldimizda o‘zining kutilmagan tomoni bilan gavdalanadi, yangicha ohang va ma‘no qirralarini namoyon etadi. Demak, tekshirilayotgan obyektning tub mohiyatini tushuncha, so‘z birikmasi va tasviriy ifodalarning bir mezonga bo‘ysundirilganligini aniqlash orqali ochishimiz mumkin. “Shoira she‘rlarining deyarli barchasida mavzu ko‘lami va ifoda xususiyatlari



o‘ziga xosligi bilan ham kitobxon qalbiga tez yetib boradi. Uning chin tuyg‘ulari eng muvofiq, eng ta’sirli ifodaviy shakllarini namoyon etadi”. “Shoiraning izlanishlar doirasi har qancha keng, rang – barang va hatto atish mumkinki, ma’lum ma’noda bir – birini rad etuvchi tendensiyalar tarzida ko‘ringan bo‘lsa-da, ularning hech biri izsiz ketmadi. O‘zaro qorishib, bir – birini to‘ldirib, sifat jihatdan yangi bir poetik uslub maydonga kelishi uchun sarzamin bo‘ldi” Ijodkor ong shuurini so‘z, tovush, va ohang izchilligi belgilab berishini e’tiborga olsak, ko‘zlangan maqsadga erishish yanada osonlashadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Badiiy matn mohiyatini ochishda so‘z vazifadoshligi asosida shakllangan poetik unsurlarni aniqlash orqali ifoda va tasvir tengligini, tahlil va talqin qorishig‘ini, tasavvur va tafakkur, shakl va mazmun yaxlitligini, belgi va vosita muvofiqligi, dunyoqarash va mahorat jipslashuvini kuzatish mumkin:

Umri davonimda nega adashding,
Ko‘ngil ayvonimda nega adashding,
Jundayin bevafo chiqding-a oxir,
Bo‘g‘z-u tavonimda nega adashding?

Kuchli hissiyot bilan to‘yingan, lirik qahramonning yoriga javob talab qilmas (ritorik) so‘roqlari bilan boshlangan tasvir manzarasi ifoda butunligini ta’minlagan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, so‘z boshqa so‘zlar bilan aloqaga kirishib, yangi ma’no-mazmun va ruhiyat ifoda etgan. Matnda mantiqiy intizom bosqichma-bosqich shakllangan. Ya’ni bunda hayot – sevgi – vido tushunchalarini “umr davoni”, “ko‘ngil ayvoni” kabi sifatlashlari, shuningdek, “bo‘g‘iz-u tavon” birikmasi orqali ifoda etilgan. Bunda umr davoni – ko‘chma ma’noda “maqsad, intilish, hayoliy, ruhiy marra”. Ko‘ngil ayvoni – yurak, ishq sifatida talqin qilingan. Shuningdek, ritorik so‘roq manosida kelgan lug‘aviy takror “nega adashding” birikmasi matndagi e’tiroz tuyg‘usini oshirgan va ma’no kuchayishiga xizmat qilgan. Banddagi barcha misralar so‘roq mazmunida ifodalangan. Birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi misralardagi so‘roq mazmuni nega olmoshining adashding fe’li bilan birikishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, uchinchi misrada bu holat chiqding fe’liga – a so‘roq yuklamasi qo‘shilishi orqali amalga oshirilgan. Mazkur holat mantiqiy intizom shakllanishida tuyg‘ular ohangdoshligini oshirishga xizmat qilgan. Unda barcha unsurlar vazifadoshligi faol

ishtirokchiga aylanadi: tovush ohangni jilvalantiradi, belgi tasavvurni harakatga keltiradi, tasvir ruhiy kechinmani markazlashtiradi, ifoda obraz mundarijasini belgilaydi. Tushuncha kompozitsion – uslubiy mazmunini anglashda so‘z shakli mustahkam o‘rin egallaydi. Bu masalaning bir tomoni, ikkinchi tomoni shundaki, biz tahlilga tortilgan matnning falsafiy mohiyatini ham nazardan chetda qoldira olmaymiz. Ya’ni, “Jondayin bevafo chiqding-a oxir, Bo‘g‘z-u tavonimda nega adashding?” der ekan, hayotiy falsafa jonning jismni tark etishi, “shu vaziyatda jon yo bo‘g‘izdan, yo tovondan tarqaladi” degan xalq orasidagi falsafiy dunyoqarashni yorning oshiqdan ayro ketishi bilan qiyoslagan. Shuningdek, matndagi umr, dovon, ko‘ngil, ayvon, jon, bo‘g‘iz, tavon kabi so‘zlardan tarkib topgan poetik obrazlar ham matn mantiqiy va grammatik intizom shakllanishida falsafiy umumlashmani yuzaga keltirgan.

Badiiy asardagi hayot – so‘z vositasida yaratilgan ekan, badiiy til bevosita real fikr va hissiyotning obrazli ifodasidir. Jajji (mikro) obraz, har qanday so‘z kontekstda (boshqa so‘zlar bilan aloqada) hayotiyligini, o‘zining xususiyatini, rangini, hidini, ohangini ko‘rsata oladi. Yozuvchi so‘zning grammatik, leksik, stilistik ma’no ko‘rinishlaridan eng zarur va kerakligini kontekstga muvofiq ishlatadi, ya’ni tasvirlayotgan hayot (epizod, obraz, xarakter)ning mohiyatini chuqur ochib beruvchi so‘zlarni tanlaydi. Tanlagan har qanday so‘z adabiy asarda, albatta, ma’lum yukni tashishi lozim bo‘ladi. U tasvirlanayotgan voqeaning haqqoniyliги va to‘laligini, qahramonning his-tuyg‘ulari, kayfiyat va kechinmalarini o‘zida mujassam etishiga – shu yukni qanchalik ko‘targanligiga qarab uning ahamiyati va kuchini belgilaymiz, - deya e’tirof etadi zukko munaqqid H.Umurov. Nazariy mushohadada estetika predmeti – so‘zning badiiy vazifadoshligiga mantiqiy urg‘u berilgan. Darhaqiqat, har bir tushuncha o‘z yashash maydoniga ega. Shartli ravishda uni birlamchi (barqaror tasavvur) hamda ikkilamchi (badiiy ifoda) mohiyatga taqsimlash mumkin. Agar dastlabki mohiyatda doimiy, o‘zgarmas belgi-xususiyat-sifat ko‘rsatkichi aks etsa, keyingi qatlamda so‘z hissiy idrok materialiga evriladi. Binobarin, lug‘aviy konstruksiya hayotiy ilg‘am-poetik fikr-ijodiy umumlashma orasida shakllanadigan badiiy munosabatlar mantiqiy izchilligini ta’minlaydi.

“Ishq porloq yulduzdir, bashariyat ko‘zining nur-u ziyosi shundan” degan edi Alisher Navoiy. Darhaqiqat, “insonning eng qudratli va odamning ruhoniy, jismoniy dunyolarini har tomonlama va

butunlay qamrab, chulg‘ab oluvchi, o‘ziga bo‘ysundiruvchi hissiyot. Ishq, muhabbat odamning o‘z-o‘zidan balandroq, yuksakroq ko‘tarilishi yoki, balandroq ko‘tarilishga intilishdir. Mana shunday holni (beg‘ubor, samimiy, soda tuyg‘ular oqimini) donolikka ko‘milgan, hilqatga yo‘g‘rilgan, poklikka cho‘miltirilgan, qalb taftida pishirilgan, ong bilan porlatilgan bekam-u ko‘st yaratilgan” asarlarda ishq talqini shunday ifoda etilgan . Ishq – olovga tenglanadi, u yurak atalmish ayvonga qadam qo‘ydimi, butun tanani o‘z gulxanida kuydiradi. Ishqqa mubtalolarning joni tanasiga sig‘maydi, ishq haroratining kuchliligidan ko‘ngil kuya boshlaydi:

Shunday bir ishq berding, yo‘lim qoldirmas,
Bittalab sarg‘aytar gulim qoldirmas,
Shundayin ishq berding, shunday yondirar,
Hattoki bir siqim kulim qoldirmas.

Matn ruhiyati lirik qahramonning tushkun holatiga evriladi. Oshiqning yoriga murojaatida ikkita ruhiyat ustunlik qiladi. Ya‘ni, biri oshiqning yoriga e‘tiroz hissi bo‘lsa, ikkinchisi matn ost qatlamida yashirin holat - ishqdan sarmastlik holati ifodalangan. Bu holatni tuyg‘ular reallashib, she‘r ruhiyati o‘quvchi ruhiyatiga tamomila ko‘chib ketishi natijasida kuzatishimiz mumkin. Band misralarida o‘zaro qofiyadosh bo‘lib kelgan “yo‘lim qoldirmas”, “gulim qoldirmas”, “kulim qoldirmas” lug‘aviy takrorlari matn intizomini shakllantirgan va tuyg‘u ohangdoshligini keltirib chiqargan. Shoira har bir so‘z, har bir tovush, har bir jumlagi alohida vazifa yuklab ketganki, bu matnda ifoda va tasvir, shakl va mazmun, tasavvur va tafakkur bir mezonga bo‘ysungan. Daminanta so‘z “ishq berding” badiiy mushohadada mazmun yuksalishini belgilab bergan. Ya‘ni, bu jumla mohiyatini ochishga boshqa lug‘aviy birliklar mantiqan tobelangan. Unda o‘zaro hamkorlik va adabiy aloqa bir – birini to‘ldiruvchi mohiyatga evriladi. Band birinchi misrasida ma‘no kuchayishi shunday so‘ziga bir so‘zi qo‘shilishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, uchinchi misrada esa mantiqiy taraqqiyotni yuksaltirish shunday so‘ziga - in yuklamasini qo‘shish orqali amalga oshirilgan. Matnda tovushlar o‘zgarishi tuyg‘u ohangdoshligi va ma‘no zo‘rayishini ta‘minlagan. Shuningdek, misrama-misra yuksalayotgan mantiqiy taraqqiyot falsafiy ifodadan holi emas. Ya‘ni banddagi ikkinchi misra “Bittalab sarg‘aytar gulim qoldirmas” jumlasini olib qaraylik. Avvalo, gulni, yashil tabiatni sariq

rangga burkash kuz fasliga hos bo'lgan xususiyat ekanligini nazarda tutsak, bu mushohadada so'zga yuklatilgan falsafiy ifodaning ustunligini kuzatishimiz mumkin. Matn mantiqiy taraqqiyotining eng yuqori bosqichi to'rtinchi misrada ko'zga tashlanadi. Ya'ni, "*Hattoki bir siqim kulim goldirmas*" jumlasida lirik qahramonning ishqdan tortgan jamiyki iztiroblari jamuljamini aynan shu misrada uyushtiradi. Mushohada mantiqiy yakuni she'r oxiridagi "*...O'zi dildorda-yu, ishq mandadir*" jumlasini orqali amalga oshirilgan. Adabiy talqinda in'ikos topgan yorqin ifoda, garchand, tushkun kayfiyatni aks ettirsa-da, o'quvchi diliga shukuh bag'ishlaydi, satrlardagi nafis sezim yuksak tuyg'uga yo'l ochadi. Timsol va g'oya, shakl va mazmun, ifoda va talqin o'zaro yaxlitlikni kasb etsagina, she'r mukammalligini tayin etadi. Ya'ni ifodada ijodkor monologni yetakchi o'ringa chiqaradi va hayotiy ziddiyatlar falsafiy teranligini uyushtiradi. She'rda g'oyaviy – badiiy mushohada shakllanishida so'z vazifadoshligi birinchi planga chiqadi. Ijodkor ifoda uslubi murakkabligini monolog asosida shakllantiradi. Lirik qahramon "mantiqiy ta'kid asosida mohiyatni yanada quyuqlashtirish barobarida ifoda aniqligini ham ta'minlaydi".

So'z san'ati muntazam fikr, hodisa, g'oya va ruhiy kechinma xarakterini umumlashtirishga moyil. Aniqrog'i, muammo eng muhim qirrasini urg'ulash uning mohiyatini ta'riflaydi. Bu daxldorlik inson, millat va bashariyat manfaatlarini birlashtirsa, poetik kashfiyot hosil bo'ladi. Shakl, so'z va ma'no tuyg'usi evrilishi ijodkor dunyoqarashida xoslanadi. Total ifoda tanlovi kengligi hamda teranligi poetik maqomni rasman tasdiqlaydi. Shu ma'noda, hayotiy tushuncha qamrovi va ijodiy e'tiqod mas'uliyati yaxlitligi Guljamol Asqarova ruhiy olami o'ziga xosligini ta'minlaydi. Tasavvur, kechinma, taassurot haqqoniyli shoir badiiy hujayralari to'qimasiga singib ketadi va borliqni ijodiy o'zlashtirish-anglash-baholash tizimini muayyan qadriyatga aylantiradi.

Badiiy matn inson, tabiat va jamiyat sarhadlariga tarqalib ketgan uyg'unlikni kashf etadi. Ichki mohiyat va tashqi shamoyil orasidagi aloqa badiiy yaxlitlik kafolati, unda subyekt va obyekt ohangdoshligi, shakl va mazmun vobastaligi, tasavvur va g'oya mushtarakligi, talqin va tahlil ziddiyati o'z ifodasini topadi. Aslida «har bir san'at asari dunyoning yaxlitligini tasdiqlovchi manifest» hisoblanadi. Adabiy hamjihatlik real voqelik hamda ijodiy g'oya o'rtasida shakllanadigan munosabat tizimi tajribasini markazlashtiradi. Adabiyot falsafasi hissiy idrok

vositasida o‘zaro bog‘liqni asoslashdan iborat. Shu o‘rinda ta‘kidlash joiz, mohiyat hamisha mavhumlik qadar harakatlanadi. Tasvirdan ifodaga, ifodadan g‘oyaga muttasil o‘tib turish aloqalantirilgan mushohadani tahlilga yuzlantiradi. Tahlil va talqin insoniyat fikrlash madaniyati ikki bosqichi, imkoniyat hamda mantiq mushtarakligi poetik butunlikni tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan, shoira adabiy talqinida matn mustaqil, aniqlovchi va to‘ldiruvchi ijodiy a‘zolar badiiy intizomidan iborat. Zotan, har bir she‘rda tasvir ruhiyati intensivligi ifoda mustaqilligi tarqoqligiga olib keladi. Uni texnik barqarorlashgan, ijtimoiy-ruhiy-falsafiy mohiyat tugalligidan tashkil topgan voqea-hodisot poetik turtkisi izchil ifodasi sifatida baholash mumkin. Muallif adabiy tafakkurda tafsilot, taassurot va muhokamaga keng o‘rin ajratadi. Goh oshkor, goh yashirin tarzda namoyon badiiy maqsad muntazam turtki hamda natija aloqadorligini tiklash vazifasini bajaradi. Ichki uyg‘unlik, nisbiy shartlilik va hayotiy-maishiy talqin asar mundarijasini belgilab beradi. Ijtimoiy-madaniy voqelik bilan matnni tutashtirgan poetik ong taqlid, tahlil, tasvir hamda ifodani muayyan estetik markazga jamlaydi. Chuqur tahliliy muhokama matn butunligini ta‘min etadi. Aynan materiyani «badiiy tadqiqot teranligiga yo‘naltirish» tizimi moddiy va ma‘naviy qadriyat mezonlari turfaligidan o‘sib chiqadi. Unda hayot haqiqati badiiy talqin vositasida to‘ldiriladi, boyitiladi va tartibga solinadi. Agar real voqelikni mavhum obyekt tarzida qabul qilsak, adabiy mohiyat uning yaxlitlikka evrilgan ifodasi.

So‘zning obrazga aylanishi – estetik jihatdan o‘ta faollik kasb etishi uning hissiy boyitilgan, aniqlik va yaxlitlik kasb etgan, estetik jihatdan baholangan reallikka aylanishidan iborat. Chunki bunda so‘z o‘zining material estetika obyektligidagi ma‘nosini boyitgan ifodada ko‘pplanlilik kasb etadi. Natijada, u nominativ, axborot berish doirasidan chiqib, tasviriy va ifodaviy munosabatlar, ya‘ni ekspressiv ma‘nolar doirasida harakat qiladi, - ta‘kidlaydi prof. B.Sarimsoqov. Darhaqiqat, tushuncha mantiqiy taraqqiyoti moddiy estetika va ijodiy estetika tabiatini bir-biridan tafovutlash lozimligini ko‘rsatadi. Unda materiya nominatsiyasi tasavvurda boyitilgan, ijodiy mantiqda taraqqiy topgan hamda ruhiy tahlilda teranlashtirilgan adabiy talqinga aylanadi. Binobarin, estetik shaklda voqelik hissiy idrok predmetini sharhlaydi. Aynan adabiy janr barqarorligi matn ijodiy yaxlitligini hosil qiladi.

XULOSA

“Poetika” tizimi ijodkor fitrati va estetik qadriyat hosilasi-matn uzviy munosabatini tanlov, uyushma hamda vazifa nuqtai nazaridan tekshiradi. Aynan yozuvchi ijodida ong miqyosi adabiy konsepsiyalar qolipi va joriy davr poetikasini tasdiqlaydi. Biroq poetik tushuncha xususiy mohiyati muntazam ravishda umume’tirofdagi nazariy mezonlarni buzishga intiladi. Zotan, materiya va ifoda ham uyg’unligi, ham ziddiyati atama tadqiqot markaziga ko’tariladi. Unda «til material tanlovi va qayta idrok tadriji» (V.V.Vinogradov) muallif dunyoqarashi (badiiy ilg’am) hamda umummohiyat (an’ana, janr, estetik mezonlar barqarorligi) ixtilofini tayin etadi. Aslida adabiy ong, nutq madaniyati va an’ana davomiyligi poetika bosqichlari kafolati, badiiy shartlilik matn joriyligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Hissiy muqoyasada o’lcham uni anglash me’yorlarini dalolatlaydi. Uyushma va kommunikativ munosabat izchilligi matn ijodiy yaxlitligini ta’minlaydi. Har qanday adabiy (shu jumladan, poetik) asar, san’atkor ijodiy faoliyatining ruhiy olami, insoniyat tarixi moziyi va kelajagi bilan keng tizimaro aloqalantirilgan tutashuvi asosida yuzaga keladi, ayni paytda, hamkorlik hamda o’zaro munosabatning aniq murakkab yaxlitligini shakllantiradi, - deya ta’kidlaydi rus munaqqidi G.M. Fridlender. Darhaqiqat, g’oyaviy-estetik o’ziga xoslik va betakrorlik ijod falsafasi mag’zini tayin etish barobarida san’atkor badiiy izlanishlari tabiatini ham dalolatlaydi. Unda mafkura, axloq va nafosat butunlashadi.

REFERENCES

1. Asqarova G. Oshiqlar tumori. –T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
2. Asqarova G. Erkalik imtiyozi. –T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
3. Matyakupov S. She’riyatda dialog yaratish mahorati. –T.:“Muharrir” 2013.
4. Nosirov O’. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. –T.: Fan, 1981.
5. Turniyazova Sh.Hozirgi o’zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari.Filol.fan.nomz...dis.-Toshkent, 2010.
6. Yo’ldashev M.Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi.Filol.fan.dokt...dis.-Toshkent, 2009.

